

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA DISKURS TADQIQOTLARI VA YONDASHUVLARI

Mansurova Xurshida Abdukarim qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Diskurs – ekstraliningistik omillar bilan birgalikda uyg'un, vogelik nuqtai nazaridan qaralayotgan matn, maqsadli harakat sifatida odamlarning o'zaro munosabati va ularning ongli mexanizmlari (kognitiv jarayonlari)ning tarkibiy qismi sifatid ko'rib chiqiladigan nutqdir. Ushbu maqolada hozirgi zamon tilshunoslikda dolzarb bo'lgan diskurs tushunchasi va uning lingvokulturologik talqini yoritilgan.

Kalit so'zlar: diskurs, lingvokulturologiya, matn, kommunikatsiya, lisoniy birlilik, antropotsentrlik, badiiy matn, adabiy aspekt.

DISCOURSE STUDIES AND APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS

Mansurova Khurshida Abdukarim kizi

1st stage foundation doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Annotation: Discourse is a text that is considered in harmony with extralinguistic factors, from the point of view of reality, as a purposeful action, which is considered as an integral part of human interaction and their conscious mechanisms (cognitive processes). This article discusses the concept of discourse and its linguocultural interpretation, which is relevant in modern linguistics.

Keywords: discourse, lingvoculturology, text, communication, linguistic unit, anthropocentric, literary text, literary aspect.

ДИСКУРС-ИЗУЧЕНИЕ И ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Мансурова Хуршида Абдукарим қизи

Докторант I ого курса, Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои abdukarimova1997@gmail.com

Аннотация: Дискурс – это текст, который рассматривается в гармонии с экстравербальными факторами, с точки зрения действительности, как целенаправленное действие, которое рассматривается как неотъемлемая часть взаимодействия людей и их сознательных механизмов (когнитивных процессов). В данной статье рассматривается понятие дискурс и его лингвокультурологическая интерпретация, актуальная в современном языкознании.

Ключевые слова: дискурс, лингвокультурология, текст, коммуникация, языковая единица, антропоцентризм, художественный текст, литературный аспект.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik so'nggi yillar davomida sezilarli rivojlanib, har bir davr ijtimoiy zaruratidan kelib chiqqan holda o'z oldiga tegishli vazifalarini qo'ymoqda. Bugungi kunda tilshunoslik jamiyatida zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari va tamoyillari, xususan, diskurs tadqiqotlari uni tavsiflashning yangi usullarini, uning birliklarini tahlil qilishda yangi yondashuvlarni, qoidalarni talab qiladi.

Diskursni voqeа rivojining ajralmas bo'lagi sifatida ta'riflash, N.D.Arutyunova (1990) ushu Kommunikativ hodisaning ikkitomonlamaligini ta'kidlaydi: bir tomonidan, bu matn, og'zaki yoki yozma muloqotning og'zaki tarkibiy qismi, ikkinchi tomonidan, bu Kommunikativ vaziyat bo'lib, unda o'ziga xos tarzda harakat qiluvchi ishtirokchilar mavjud. Diskurs - bu shaxsiy, madaniy va vaziyatga qarab belgilanadigan Kommunikativ amaliyat. Ushbu ta'rif tadqiqot sohasini kengaytiradi, bizning oldimizda nafaqat matn, balki Kommunikativ vaziyatning muhim tarkibiy qismlari bilan shartlangan matnni yaratish va matnni idrok etish jarayonlari ham mavjud. Biroq, bu ta'rifda ham kuzatilishi mumkin bo'lgan haqiqat Kommunikativ vaziyat haqidagi sharhlar bilan to'ldirilgan matn bo'lib qoladi. Bu matnni talqin qilishning ikkita asosiy turiga olib keladi: dekodlash, faqat fokusli matnga yo'naltirilgan va tafsir, bu ham fon matnnini hisobga oladi va sharh janrida birinchi navbatda fon matniga bag'ishlangan.

Adabiyotlar sharhi. Diskursni o'rganish ko'plab zamonaviy tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilgan (Van

Dijk, 2000; Demyankov, 2005; Kashkin, 2010; Makarov, 2003; Manaenko, 2003; Sidorov, 2009; Tyupa, 2010; Uxvanova-Shmygova, Chernskaya, 2010;). Ushbu o'rghanishlar asnosida diskurs tahlili uchun bir nechta yondashuvlar kelib chiqdi.

Diskursiv tahlil til va matn o'rtasidagi munosabatni o'rghanishga qaratilgan sohadir. U o'tgan asrning 60-70-yillarida tilshunoslik, semiotika, psixologiya, antropologiya va sotsiologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida vujudga kelgan. [1] Diskurs lingvistik imkoniyatlarning haqiqiy holatini o'rghanadi - turli xil matn va og'zaki nutqlardan, dialogdan tortib, yuqori darajada institutsional suhbatlarga. Tilshunoslar gaplarning uzilgan holatini tahlil qilayotgan bir paytda Z.Xarrisning "Diskursiv tahlil" nomli maqolasi chop etildi. Maqola bugungi kundagi diskursiv tahlil tamoyillaridan yiroq bo'lsa-da, Z.Xarris matnda mavjud bo'lgan lingvistik elementlarni, matnning nutqiy vaziyatga munosabatini ko'rib chiqadi. Nutqni o'rghanishga semiotik va fransuz strukturalistlarining kirib kelishi ham bu sohaning rivojlanishiga katta turki bo'ldi. O'tgan asrning 60-yillarida J.Ostin kabi tilshunos faylasuflar J.Searl, X. Grice ham tilni ijtimoiy voqelik sifatida o'rghanishni, muloqotning shakllanishini o'rghanishni boshladilar va nutq nazariyasi pragmatik yo'nalishni tanladi va matndan anglashilgan ma'noni tahlil qila boshladi.

Diskursiv tahlil britaniyalik tilshunos M.Xollideyning tilga nisbatan funksional yondashuvlariga katta ta'sir ko'rsatdi. M.Xollideyning ilmiy ishlari tilning ijtimoiy vazifalari, mazmuni, rasmiy yozma va og'zaki nutq tahlilini o'z ichiga oladi.[2] Bundan tashqari, tilshunos olimlar Sinkler va Kultsart o'qituvchi va o'quvchi muloqotining diskursiv birliklar asosida tahlilini ishlab chiqdilar, o'z ishlarida shifokor-bemor, xizmat, intervyu, bahs-munozara, ishbilarmonlik muloqoti va hatto monologlarning diskursiv tahlilini berdilar. Britaniya an'analarida asosan badiiy adabiyot diskursiv tahlil qilingan. Britaniya ilmiy nazariyalari struktur tilshunoslik tamoyillari, ya'ni birliklarni ajratish, nutqning mukammal shakllangan birliklarini tavsiylovchi qoidalar majmui asosida qurilgan.

Amerikalik tilshunoslarning diskursiv tahlili etno-metodik an'analarga, odamlarning tabiiy muloqotini kuzatish jarayonida ilmiy izlanishlarga asoslanadi. Turli madaniyatlarda hikoya qilish, salomlashish va imo-ishoralar kabi muloqot turlari o'rghaniladi. Amerika an'analarida ko'pincha aloqa tahlili deb ataladigan sohani diskursiv tahlilning asosiy tarmoqlaridan biri deb atash mumkin. Muloqotni tahlil qilishda lingvistik tuzilishga e'tibor berilmaydi, lekin asosiy e'tibor tabiiy muloqot ishtirokchilarining xarakteri, kayfiyati kabi omillarga qaratiladi.

Praga tilshunoslik maktabi ham diskursiv tahlilning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi va xususan, bu maktab grammatika va nutq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatishi uchun alohida e'tirofga loyiqdirdi.

Muhokama va natija. Diskurs o'zining kommunikativ funksiyasi bo'yicha tuzilgan va muloqot vaziyatiga moslashgan nutq qurilmasidir. Shakl va funksiya jihatidan muvofiqlashtirish nutqni boshqa birliklardan ajratish imkonini beradi. Biroq, nutq nazariyasi endigina shakllanmoqda, shuning uchun tahlilning ushbu yo'nalishida umumiy lingvistik usullardan foydalanish imkoniyatlarini izlash zarurati tug'iladi.

Bunday ilmiy izlanishlar, muammoga doir bildirilgan turli qarashlar dialogik nutqning tilshunoslikda yechilishi va tadqiq qilinishi kerak bo'lgan jihatlari mavjudligidan dalolat beradi. Dialogik nutq odatda "ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasidagi suhbat" deb ta'riflanadi. Bu haqiqiy, ammo noxolis fikr. Gap shundaki, dialogik nutq ijodkor uchun ijodiy texnikaning eng qiyin qismlaridan biri hisoblansa, uning sintaktik xususiyatlari, pragmatik va diskursiv mazmuni va tuzilishi tilshunos uchun katta ahamiyatga ega. Ayrim manbalarda dialoglar va ularning xususiyatlari badiiy adabiyotning nasriy va dramalari matnida o'rghaniladi. Bunday asarlarda dialoglar yozish ogzaki nutqning jonli shakli ekanligi etirof etiladi. Diskurs ijtimoiy amaliyotning bir turidir. Bu shaxsiy maktubdan gazeta xabarigacha, oilaviy suhbatdan siyosiy nutqgacha bo'lgan har qanday og'zaki va yozma muloqotga qaratilgan bo'lib, kommunikativ hodisaning bir qismini tashkil qiladi. Bunda fikrlar va his-tuyg'ular tildan foydalanish orqali yetkaziladi yoki almashinadi.

Diskurs tushunchasiga lingvistik yondashuvlar va uning mazmun-mohiyatini ochib berish borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. V.E.Chernyavskaya diskurs tushunchasini matn tushunchasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqib, quyidagi ta'rifni beradi: "Diskursni situatsion kontekst bilan chambarchas bog'langan matn(lar) sifatida tushunish kerak" deb ta'kidlaydi.[3] V.Z.Demyankov esa diskurs haqida bir nechta gapdan yoki gapning mustaqil qismidan tashkil topgan matnning ixtiyoriy qismi deb izoh beradi. Shunday qilib, diskurs matnga nisbatan kengroq tushunchadir. Yu.S.Stepanov diskursni muqobil dunyo, fakt, sabab tushunchalari bilan bog'laydi. U, shuningdek, diskursga alohida ijtimoiy borliq ko'rinishida namoyon bo'lgan "til ichidagi til" sifatidagi keng lingvofalsafiy izoh beradi. Bunda diskursni shunchaki

til sifatida grammatika, stil yoki leksikon kabi hisoblab bo‘lmaydi. U avvalambor o‘zida alohida grammatika, alohida leksikon, alohida so‘z ishlatalish va sintaksis qoidalari va alohida semantika mavjud bo‘lgan matn bo‘lib, bir so‘z bilan aytganda diskurs alohida dunyodir. Garchi Yu.S.Stepanov diskursni matnlarda mavjudligi haqida aytgan bo‘lsa-da, uning diskursni alohida dunyo sifatida ko‘rishi diskurs matn doirasidan tashqari tushuncha deb xulosa qilishga olib keladi.

Professor Karasik esa “Diskurs – bu matn va kommunikativ vaziyatning birligi” deya ta’rif beradi.[4] Debora Shafrin bu tushunchaga uch tomonlama yondashadi. Birinchi yondashuv tilshunoslikning formal yo‘naltirgan pozitsiyasidan diskursning shunchaki gap yoki so‘z birikmasi darajasidan yuqorida turadi deb hisoblaydi – “language above the sentences or above the clause”. Ikkinchisi yondashuv diskursga “the study of discourse is the study of any aspect of language use” – “tilning turli-tuman ishlatalishi” sifatida funksional ta’rif beradi. Bu yondashuv tilning keng ijtimoiy-madaniy konteksdagi vazifasini o‘rganishni nazarda tutadi. Uchinchi yondashuv shakl va funksiyaning o‘zaro harakatini ta’kidlaydi: diskurs – fikr “discourse as utterances”. Unga ko‘ra diskurs “gapdan ko‘ra kattaroq bo‘lgan lisoniy tuzilmalarning yig‘indisi emas, balki tilning qo‘llanilishini funksional tashkil qilgan, matn holiga kelgan birliliklarning majmuidir. O‘zbek tilshunosligida diskurs borasida lingvistik tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan. U matn va diskurs muammolari to‘g‘risida quyidagilarni bayon etadi: “Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo‘lsa, ularni faqatgina zohiriyl – formal ko‘rsatkichga asosan “og‘zaki” va “yozma” sifatlari bilan farqlash imkoniga gumanim bor. Shu bilan birga, ularning birini moddiy ko‘rinishli hodisa, ikkinchisini esa bu xususiyatdan xoli ko‘rinishda tasavvur qilish biroz qiyin masala.

Maqsadli ifodalangan kommunikativ mazmun va so‘zlovchining istagi bilan bog‘liq bo‘lмаган holda tinglovchi idrokida hosil bo‘ladigan informativ mazmun bir-birini inkor etmaydi, balki ular o‘zaro birikib muloqotning samaradorlilagini ta‘minlovchi muhim omilga aylanadi. Boshqa manbalarda diskursning janr kabi ekanligi, nutqiy janr – tipik tuzilishi, lisoniy vositalardan foydalanishning o‘ziga xosligi, aniq adresatga qaratilganligi, ma’lum kommunikativ maqsad va ma’lumot yetkaza olishi, etiketlik kabi jihatlari bilan ajralib turuvchi nutq turi ekanligi ifodalanadi. Shuningdek, maxsus olib borilgan tadqiqotlarda diskursning ijtimoiy tabiatি orqali publisistik diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs, baholovchi diskurs kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelganligi qayd etiladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, talqin va izohlarning xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko‘p qirrali va keng qamrovli ekanligini yaqqol ifoda etadi. Eng avvalo, diskurs ifodalananish vositasiga ko‘ra, ikki boshlang‘ich guruhlarga – og‘zaki vayozma diskursgabob‘linadi. Og‘zaki nutq ko‘proq takrorlash, ikkilanish va qisqartirishni o‘z ichiga oladi, chunki u real vaqtida ishlab chiqariladi, yozma nutq esa buning aksi. Og‘zaki nutqdagi takrorlash so‘zlovchi nimani anglatishini qayta keltirib o‘tish va tushunmovchiliklarni oldini olish kabi bir nechta funksiyalarga ega. Og‘zaki diskurs uchun intonatsiya juda muhimdir. Ayniqsa buni siyosiy nutqlarda kuzatishimiz mumkin. Bu orqali ma’ruzachilar nutqning ma’nosini tinglovchilarga tushunarli qilib ifodalab beradi. M.Hallidey diskursni uning parametrлари, elementлари, mavzusi, uslublari orqali talqin etadi.[5] Diskurs tushunchasi mohiyatida odamlarning ijtimoiy muloqotga kirishishi uchun asosiy quroq tushuniladi. So‘ngi paytlarda zamonaviy lingvistik tadqiqot materiallarida diskursning quyidagi tiplari ajratiladi: pedagogik, siyosiy, tanqidiy, harbiy, diniy, iqtisodiy, ilmiy, o‘quv, media va h.k. Ya’ni inson faoliyatining har qanday jabhasiga taalluqli bo‘lgan diskurs turlari mavjud. Yuqorida tilshunos olimlarning fikrlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, diskurs bir paytning o‘zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, hamda ushbu faoliyatning mahsulidir. Shuningdek, diskurs bu insonlarning o‘zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir-biriga turli fikrlarni va ma’lumotlarni yetkazishi va bularni yetkazishda turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhabatdosh uchun ham tushunarli bo‘lgan jarayon hisoblanadi.

Diskursni o‘rganishning birinchi bosqichi, belgilovchi bilan belgi o‘rtasidagi ajralmas munosabat bilan belgilanadi, unga ko‘ra, belgilovchining idrokini belgilovchilardan biri shartlaydi, uning mikrostruktura darajasini (frastik va transfrastik) qamrab oladi. U nutqni yaxlit, ya’ni diskursiv birliklar yig‘indisi sifatida tushunish uchun zarur bo‘lgan makrostruktura darajasidagi aloqalarni ochib berishga qaratilgan zamonaviy nazariyalar tomonidan ilgari surilgan.

Faqat lingvistik tizimga taalluqli deb da‘vo qiladigan strukturalistik nazariyalar, shuningdek, semiotik va ramziy tekislikni e’tiborsiz qoldiradigan o‘zaro ta’sir istiqbollari aniq qoniqarsiz. Ushbu “kamchiliklar” talaffuz, o‘zaro ta’sir, bitim va ishslash kabi tushunchalar asosida yangi fanlararo sohaning shakllanishiga olib keladi, unda tergov apparati shakllanadi, bu ma’noni aniqlash uchun ma’lum parametrлarni o‘rnatadi: niyat, harakat, kontekst va ijtimoiy-o‘zaro ta’sir me’yorlari. Til akti va ijtimoiy

akt o'rtaqidagi chambarchas bog'liqlik "Diskurs tahlili nima uchun boshqalarga emas, balki ba'zi bir bayonotlarga ustunlik berilganini tushuntirishi kerak emas, balki bu bayonotlar kuchlarni qanday safarbar qilganligi va ijtimoiy tarmoqlarga qanday ta'sir qilganini ham ko'rsatishi kerak" degan tushuncha bilan ta'kidlanadi. Umuman olganda, nutqni tahlil qilishdan bosh tortish, tilni ifodalash funksiysi orqali kontseptsiyalash va uning kommunikativ harakat belgisini ilgari surish aloqa ma'nosini belgilaydigan nuqtai nazarni sezilarli darajada o'zgartirishga olib keladi.

Diskursning tematik yondashuvi o'z tahlilini referentlar tekisligiga o'tkazadi va dunyo cheksiz vogelikning tushunilgan bo'laklari bo'lgani uchun, bu tushunchadagi diskurs tipologiyasi tezaurus qurish bilan bir xildir. Diskursni bunday tushunish til fanida juda keng tarqalgan bo'lib, biz iqtisodiy, ekologik, gastronomik, alpinizm, filatelik va boshqa diskurs turlari haqida gapirishimiz mumkin. Diskursni bunday o'rganish mantig'i tilga tizimli-strukturaviy yondashuvga mos keladi: mavzu bo'yicha tushunilgan nutqning u yoki bu turini o'rganish tematik lug'atga, ma'lum bir mavzuga oid syujetlar to'plamiga va stilistikaga to'g'ri keladi.

Xulosa. Yuqoridagi tilshunos olimlarning fikrlaridan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, diskurs bir paytning o'zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, hamda ushbu faoliyatning mahsulidir. Shuningdek, diskurs bu insonlarning o'zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir-biriga turli fikrlarni va ma'lumotlarni yetkazishi va bularni yetkazishda turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhbatdosh uchun ham tushunarli bo'lgan jarayon hisoblanadi. Va yana, aynan badiiy diskursning o'zi his tuyg'ular va qadriyatlar almashinuvni amalgalash oshiriladigan nutq turidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Teun A. van Dijk (1997). Discourse Studies. SAGE Publications.
2. Norman Fairclough (2001). Language and Power (2nd edition). London: Longman.
3. Zellig S. Harris (1952). Discourse Analysis (Journal article). Linguistic Society of America.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent 2008.
5. Chudinov A.P. Politicheskaya Lingvistika: Ucheb posobie. Moskva: Nauka 2006.